

70411002 – Inson resurslarini rivojlantirish (HRD – Human Resource Development)

**MAGISTRATURA MUTAXASSISLIKLARI
FANLARIDAN KIRISH SINOVLARI
DASTURI**

Toshkent- 2025

“Magistratura mutaxassisliklari fanlaridan kirish sinovlari dasturi” Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi Kengashining 2025-yil 12-iyundagi 1-son majlis bayonnomasi bilan ma'qullangan.

Tuzuvchilar: sots.f.d., prof. M.B.Bekmurodov, yu.f.d., i.f.f.d., dots. S.A.Sattarov, prof. Sh. Asadov, s.f.d., Q.Jo‘rayev, i.f.d., prof. D.N.Raximova, t.f.d, prof. A.E. Yuldashev, i.f.n., dots. U.U.Pardayev, psix.f.f.d., dots. L.U.Inagamova, i.f.f.d., dots. A.X.Xolov, fil.f.f.d., dots. M.A.Yunusov., s.f.f.d.G.O.Sa’diyeva, fil.f.f.d.,dots. M.Ch. Chutpulatov.

**O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi
akademiyasi magistratura mutaxassisliklari fanlaridan kirish sinovlari
DASTURI**

Kirish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-158-son va “Istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda ularni davlat boshqaruvi va xizmatiga samarali jalb etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2025-yil 5-maydagi PF-78-son Farmonlarida belgilangan vazifalar ijrosini ta’minlash maqsadida, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi Akademiyasi (bundan keyingi o‘rinda – Akademiya) zamonaviy ta’lim standartlari asosida “Davlat boshqaruvi” (Master of Public Administration), “Hududlarni kompleks rivojlantirish” (Master of Complex Development of Regions), “Inson resurslarini rivojlantirish” (Master of Human Resource Development) magistratura mutaxassisliklari bo‘yicha iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning ustuvor vazifalarini hal etishga qodir bo‘lgan yuqori malakali boshqaruv kadrlarini tayyorlashni amalga oshirmoqda.

Istiqbolli kadrlarni maqsadli tayyorlash hamda ularni davlat boshqaruvi va xizmatiga samarali jalb etishda vatanparvar, inson qadrini e‘zozlaydigan, korrupsiyaga toqatsiz va professional yangi avlod rahbar kadrlari zaxirasini shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Akademiyaga tinglovchi sifatida qabul test sinovlari shaklida tashkil etilib, unga davlat va xo‘jalik boshqaruvi organlari, yirik uyushmalar, aksiyadorlik jamiyatlari va boshqa xo‘jalik yurituvchi subyektlarning rahbar va mutaxassislari orasidan, suhbat asosida saralash bosqichlaridan o‘tgan nomzodlar tavsiya etiladi.

Test sinovlarini o‘tkazishdan asosiy maqsad – yuqori kasbiy bilim va ilmiy yutuqlarga, ijodiy va ilmiy salohiyatga, yuksak intellektual va rahbarlik qobiliyati, ma’naviy-axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan nomzodlarni tanlash jarayonida raqobat muhitini yaratish va ta’minlashdan iborat.

Akademiya tinglovchiligiga nomzodlarning: Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari, “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi va uning ustuvor yo‘nalishlari, O‘zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining shakllanishi va rivojlanishi, tashqi siyosati, yangi tahrirdagi Konstitutsiya mazmuni, davlat siyosati va boshqaruvining huquqiy asoslari, inson huquq va erkinliklari, fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy asoslari kabi yo‘nalishlar bo‘yicha bilimlarini baholashga qaratilgan dastur ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi faoliyatini takomillashtirish bo‘yicha qo‘yilgan vazifalardan kelib chiqib, bo‘lajak rahbar xodimning tahliliy fikrlash va strategik rejalashtirish, turli

masalalarning maqbul yechimini topish, tashabbuskorlik va yetakchilik ko'nikmalariga egaligi, rahbarga xos qadriyatlar hamda tafakkur tarzi darajasini aniqlashda psixologik testlar muhim ahamiyatga ega.

Mazkur testlar shaxsning turli xususiyatlari majmuini qamrab oladi hamda rahbar va xodimni ma'lum lavozimga tanlashda ishonchli ma'lumotlar taqdim etadi. Intellektual qobiliyat, tahliliy va mantiqiy fikrlashni aniqlashda qo'llaniladigan testlar – shaxsning fikrlashi, muammoga tizimli yondashuvi, tegishli boshqaruv qarorlarini qabul qila olishini aniqlash vositasi sifatida muhim afzalliklarga ega.

ASOSIY QISM

SIYOSIY-HUQUQIY SOHADA

1-mavzu. Markaziy Osiyo mutafakkirlarining ijtimoiy-siyosiy qarashlari

Markaziy Osiyoda yetishib chiqqan ulug' mutafakkirlarning adolat, davlat boshqaruvida mas'uliyat, ilm-u ma'rifatga asoslangan jamiyat haqidagi g'oyalari. Eng taniqli mutafakkirlar va ularning ijtimoiy-siyosiy g'oyalari. Ab-u Nasr Forobiyning «fozil jamiyat» g'oyasi. Ab-u Rayhon Beruniy – ijtimoiy-siyosiy fikrlar rivojida chuqur iz qoldirgan ensiklopedik shaxs. Ibn Sinoning ma'naviy-axloqiy va siyosiy fikrlari. Yusuf Xos Hojibning «*Qutadg'u bilig*» asarida odil podshoh, podshoh va vazirlarning xalq oldidagi mas'uliyati haqida. Alisher Navoiy asarlarida “odil podshoh” obrazi; davlat va jamiyatda ma'rifatning o'rni; rahbar mas'uliyati. Sohibqiron Amir Temurning “Temur tuzuklari” asarida siyosat, siyosiy tizim va siyosiy boshqaruvga doir qarashlari. Z.M.Boburning “Boburnoma” asarida ijtimoiy-siyosiy qarashlarning aks etishi. Jadidchilik namoyandalarining siyosiy islohotlar, jamiyat va boshqaruv haqidagi qarashlari.

2-mavzu. "O'zbekiston – 2030" strategiyasi va uning ustuvor yo'nalishlari

"O'zbekiston – 2030" strategiyasi adolatli jamiyat va qonun ustuvorligi yo'nalishidagi ustuvor maqsad va vazifalar (sud-huquq tizimini chuqur isloh qilish, fuqarolar huquqlari va erkinliklarini kafolatlash, korrupsiyaga qarshi kurashning institutsional mexanizmlarini kuchaytirish, davlat xizmatlarini raqamlashtirish orqali shaffoflikni ta'minlash). Inson kapitali va ijtimoiy sohalarni rivojlantirish yo'nalishidagi ustuvor maqsad va vazifalar (ta'lim sifatini oshirish, sog'liqni saqlash tizimini raqamlashtirish va sifatini yaxshilash, xotin-qizlar va yoshlar siyosatini qo'llab-quvvatlash, kambag'allikni qisqartirish va ijtimoiy himoyani kuchaytirish). Iqtisodiyotni liberallashtirish va sanoatni rivojlantirish yo'nalishidagi ustuvor maqsad va vazifalar (iqtisodiyotida davlat ishtirokini yanada qisqartirish va xususiy sektorni qo'llab-quvvatlash, investitsiya muhitini yaxshilash va xorijiy sarmoyalarni keng jalb etish, qishloq xo'jaligi va sanoatning yuqori qo'shilgan qiymat zanjiriga o'tishi, energetika, logistika va raqamli infratuzilmani rivojlantirish). Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish yo'nalishidagi ustuvor maqsad va vazifalar (suv resurslarini samarali boshqarish, “yashil muhit” va “yashil energiya” loyihalarini amalga oshirish, aholining ekologik bilim va madaniyatini oshirish). Xalqaro hamkorlik, ochiq va konstruktiv tashqi siyosat hamda xavfsizlikni ta'minlash yo'nalishidagi ustuvor maqsad va vazifalar (qo'shni davlatlar, an'anaviy

hamkor davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikni yanada chuqurlashtirish, mudofaa salohiyatini yanada yuksaltirish, mamlakatni turli xavf-xatar va tahdidlardan himoya qilish).

3-mavzu. O‘zbekiston Respublikasi siyosiy tizimining shakllanishi va rivojlanishi

“Siyosiy tizim” tushunchasi, uning obyektiv mazmuni va tarkibiy elementlari (davlat hokimiyati institutlari, siyosiy partiyalar, fuqarolik jamiyati institutlari, jamoat birlashmalari, ommaviy axborot vositalari, demokratik saylovlar) O‘zbekiston Respublikasi davlat boshqaruvi shakli. Prezidentlik respublikasi va uning tavsifiy belgilari. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asosiy vakolatlari. O‘zbekiston Respublikasida hokimiyatlar bo‘linishi prinsipi. Qonunchilik, sud va ijroiya hokimiyatlari. Qonunchilik hokimiyati. Oliy Majlis va uning palatalari: shakllantirish tartibi va faoliyati mexanizmlari. Sud hokimiyati: Konstitutsiyaviy sud, Oliy sud, ma’muriy, fuqarolik, jinoiy va iqtisodiy sudlar. Sud hokimiyatining asosiy tamoyillari. Ijroiya hokimiyati: O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti, Vazirlar Mahkamasi, mahalliy hokimiyat organlari. Siyosiy partiyalar va ularning mafkuraviy g‘oyalari. Fuqarolik jamiyati institutlari: nodavlat notijorat tashkilotlari, OAV, kasaba uyushmalari. O‘zbekiston Respublikasining saylov tizimi. Aralash saylov tizimi tushunchasi. Saylovning asosiy tamoyillari. Saylovning asosiy bosqichlari. Prezident, parlament va mahalliy kengashlar saylovlari.

4-mavzu. O‘zbekiston Respublikasining ochiq, tinchliksevar va pragmatik tashqi siyosati

Markaziy Osiyo mintaqasida amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish maqsadlari. O‘zbekiston Respublikasi va Markaziy Osiyo davlatlari aloqalarining faollashuvi va mintaqaviy hamkorlik dinamikasi. Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro tashkilotlardagi faoliyati. O‘zbekiston – BMT hamkorlik aloqalari. O‘zbekiston – YUNESKO hamkorlik aloqalari, O‘zbekiston – SHHT hamkorlik aloqalari, O‘zbekiston – TDT hamkorlik aloqalari. O‘zbekiston Respublikasining xalqaro va mintaqaviy tashkilotlar doirasida ilgari surgan muhim taklif va tashabbuslari. An’anaviy sherik davlatlar bilan o‘zaro aloqalarning rivojlanishi. Afg‘oniston bilan o‘zaro manfaatli aloqalarni rivojlantirish va uning tiklanishiga ko‘maklashish.

5-mavzu. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining mazmuni

Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasini qabul qilish zaruriyati. Yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi muqaddimasi mazmuni. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga yangi kiritilgan huquq va erkinliklar. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasiga o‘zgartish va qo‘shimchalar kiritish tartibi. O‘zbekiston demokratik suveren Respublika. O‘zbekistonning davlat boshqaruv shakli. O‘zbekiston demokratik davlat. O‘zbekiston demokratik huquqiy davlat. O‘zbekiston ijtimoiy davlat. O‘zbekiston demokratik dunyoviy davlat. Konstitutsiyaning to‘g‘ridan to‘g‘ri amal qilishi. Konstitutsiya va qonun ustunligi.

6-mavzu. Davlat siyosati va boshqaruvining huquqiy asoslari

Tashqi siyosatning konstitutsiyaviy asoslari. Davlat hokimiyatining bo‘linishi: qonun chiqaruvchi, ijro va sud hokimiyati. O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi maqomi. Qonun ijodkorligi va jarayoni. Senator va Qonunchilik palatasi deputati maqomi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti maqomi. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi maqomi. O‘zbekistonda davlat boshqaruvi organlari tizimi. Sud organlari tizimi. Mahalliy davlat hokimiyati vakillik organlari. Mahalliy kengash deputati maqomi. Mahalliy ijro hokimiyati organlari. Hokim maqomi.

7- mavzu. Insonning huquq - erkinliklari va ularning kafolati

“Inson huquqlari” tushunchasi. Inson huquqlarini turkumlanishi. Inson huquqlariga oid qonunchilik. O‘zbekistonda inson huquq va erkinliklarini ta’minlash tizimi. Shaxsning huquqiy maqomi. Shaxsiy huquqlar. Siyosiy huquqlar. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik huquqlar. Kafolatlarning turlari. Huquq va erkinliklarni himoya qilish usullari. Sud tomonidan himoya qilish. Milliy institutlar. Ehtiyojmand toifalarni himoya qilish

8-mavzu. Fuqarolik jamiyati institutlarining huquqiy asoslari.

“Fuqarolik jamiyati” tushunchasi va uning konstitutsiyaviy asoslari. Fuqarolarning o‘zini o‘zi boshqarish organlari faoliyatiga oid qonunchilik asoslar. Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining huquqiy asoslari. Jamoat birlashmalari tizimi. Jamoat fondlari. Ommaviy axborot vositalari faoliyatining huquqiy asoslari.

“Jamoatchilik nazorati” tushunchasi. Jamoatchilik nazoratining huquqiy asoslari. “Ijtimoiy sheriklik” tushunchasi. Ijtimoiy sheriklik mexanizmlari.

IJTIMOIIY-IQTISODIY SOHADA

9-mavzu. Milliy ma'naviyatimiz rivojlanish tarixi

O'zbek xalqining ma'naviyati uning tarixan bosib o'tgan iqtisodiy, siyosiy, madaniy rivojlanish yo'liga, imon-e'tiqodiga, dunyoqarashiga, irodasiga, jamiyatda qaror topgan muhitga mos ravishda rivojlanib kelganligi.

Tarixiy bosqichlarga ajratish mezonlarining nisbiyligi. Ma'naviyat rivoji uchun tarixiylik va mantiqiylik, an'anaviylik va zamonaviylik, barqarorlik va o'zgaruvchanlik xosligi. Industrlashgacha bo'lgan jamiyat ma'naviyatida dinning yetakchiligi. "Millat", "milliylik" va "milliy ma'naviyat" tushunchalari. Xalqimiz ma'naviyatining tarixiy bosqichlari va xususiyatlari.

10-mavzu. Ma'naviyat va axloq

Axloq tushunchasi. Axloq ma'naviyatning birlamchi negizlaridan ekanligi. Axloqiy tushunchalar va kategoriyalarning mazmun-mohiyati.

Oddiy (elementar) axloqiy tushunchalar. Axloqiy me'yorlarning undovchi (rag'batlantiruvchi) va cheklovchi (taqiqlovchi) vazifalari.

Vijdon axloq ilmi etikaning eng ziddiyatli kategoriyalaridan biri sifatida Vijdon to'g'risidagi qarashlar.

Jamiyat yuksalishi jarayonida turli axloqiy (etik) ta'limotlar va tizimlarning vujudga kelganligi. Axloqning inson va jamiyat faoliyatining barcha ko'rinishlari va yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatishi.

11-mavzu. Erkin inson shaxsini yuksaltirish – ma'naviy tarbiyaning maqsadi

Tarbiya ma'naviy hayotning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida. Ma'naviy tarbiya. Ma'naviy tarbiya bilan bevosita va bilvosita shug'ullanuvchi jamiyat institutlari, Ma'naviy tarbiyaning ilmiy-metodologik masalalari. Tarbiya ma'naviyat praksiologiyasi. Tarbiyaniig vazifalari. Ta'lim-tarbiyaning uzviyligi va farqli jihatlari. Kamil inson to'g'risidagi rang-barang va ziddiyatli zamonaviy tasavvurlar.

12-mavzu. Tibbiyot sohasida boshqaruv va ijtimoiy islohotlar

"O'zbekiston-2030" strategiyasida sog'liqni saqlash bo'yicha belgilangan maqsadlarning ijrosi. Sog'liqni saqlashda sifatli xizmatlar tashkil etish. Sog'lom

turmush tarzi. Aholining tibbiy madaniyatini oshirish. Tibbiyot sohasida boshqaruv. Reproduktiv salomatlik. Ijtimoiy islohotlar.

13-mavzu. Nodavlat notijorat tashkilotlar (NNT)ning ijtimoiy sohadagi ishtiroki

NNTlar faoliyatining huquqiy asoslari. Jamoatchilik nazorati va fuqarolik jamiyati. Davlat–jamoatchilik sherikligi konsepsiyasi. Turli sohalarda ijtimoiy rivojlanishning ta'sirini baholash. Nodavlat notijorat tashkilotlarining inson salohiyatini rivojlantirishdagi roli. NNTlarning hududlarda aholi bilan samarali muloqotni shakllantirish va ijtimoiy muammolarni hal qilishdagi o'rni.

14-mavzu. Inson resurslarini boshqarish

Samarali inson resurslarini boshqarish yo'llari. Inson resurslari strategiyasi va boshqaruvi. Tashqi va ichki omillarning inson resurslarini boshqarish strategiyasi va amaliyotiga ta'siri. Inson resurslari strategik boshqaruvining rivojlanishi. Inson resurslarini rivojlantirish uslublari.

Inson resurslarini samarali boshqarish. Boshqaruv xodimlari. Ishlab chiqarish xodimlari. Texnik xodimlar. Xizmat ko'rsatuvchi xodimlar. Inson resurslari va kadrlarga oid rejalashtirish. Jamoalar va shaxslarni rivojlantirish. Tashkilotda xodimlararo munosabatlar. Xodimlarning farovonligi. Xodimlarning farovonligiga yondashuvlar.

15-mavzu Inson resurslarini boshqarish xususiyatlari

Zamonaviy menejment tizimi asosida kadrlar bilan ishlash mexanizmlari. Inson resurslarini boshqarish tizimi. Resurslarni rejalashtirish.

Tashkilotlar va uning tarkibiy bo'linmalari (ekspeditsiyalari)ning, ular oldidagi vazifalarga va ularni rivojlantirish strategiyasi. Xodimlar tarkibining miqdoriy va sifat jihatlari. Ichki va tashqi manbalardan kadrlarni yig'ishning afzalliklari va kamchiliklari. Ish haqi va imtiyozlarni aniqlash. Kasbga yo'naltirish va moslashuv. O'qitish va rivojlantirish.

Xodimlar lavozim bo'yicha o'sishi uchun mehnat faoliyati, axloq-odob sifatleri, layoqati va malakalarini xolisona baholash yo'llari. Tashkilot boshqarma va bo'limlari bilan birgalikda, tarkibiy bo'linmalar xodimlarining, boshqaruv apparati xodimlarining yillik ta'tillarini taqsimlash grafiklarini ishlab chiqish yo'llari. Xodimlarning mehnat samaradorligini ko'tarishga va qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan dasturlarni ishlab chiqish.

16-mavzu. Inson resurslarini boshqarishda motivatsiya nazariyasi va xodimlar motivatsiyasi

Motivatsiya nazariyasining mohiyati. Gotorn tadqiqoti. Motivatsiyaning klassik nazariyalari. Maslouning ehtiyojlar nazariyasi. A. Maslou bo'yicha ehtiyojlar klassifikatsiyasi. Fiziologik ehtiyojlar. Kelajakka ishonch, xavfsizlikka bo'lgan ehtiyojlar. Ijtimoiy ehtiyojlar. Hurmat, o'z-o'zini hurmatga bo'lgan ehtiyojlar. O'zini namoyon qilish ehtiyojlari. Motivatorlar va gigiyenik faktorlar nazariyasi. Kutish nazariyasi. "X", "Y", "Z" nazariyalarining mohiyati. Alderferning mavjudlik, aloqa va o'sish nazariyasi. Makklellandning o'zlashtirilgan ehtiyojlar nazariyasi. Devid Nadler va Edvard Loularning motivatsiya nazariyasi. Protsessual nazariyalar.

Hozirgi vaqtdagi motivatsiya muammolari. Motivatsiya borasidagi muammolar. Xodimlarning motivatsiyasiga ijobiy va salbiy munosabatlarning ta'siri. Rahbarlik motivatsiyasi va stili.

INTELLEKTUAL QOBILIYAT, TAHLILIIY VA MANTIQUIY FIKRLASH SOHASIDA

17-mavzu. Intellektual qobiliyatni baholash

Nomzodning umumiy bilim darajasi, mulohaza yuritish qobiliyati va aqliy faolligi. Verbal intellekt (so'z boyligi, so'zlarni tushunish va ifoda eta olish). Aqliy faollik (qisqa vaqtda ma'lumotni qabul qilish va qayta ishlash qobiliyati). Eruditsiya (umumiy dunyoqarash va intellektual salohiyat). Maqol va iboralarni to'ldirish. Qisqa matnlarni tahlil qilish va xulosa chiqarish. Intellektual mantiq o'yinlari (mozaikalar, to'ldirma testlar). Ijodiy fikrlash qobiliyati

Intellektual qobiliyat shaxsning umumiy bilim saviyasi, mulohaza yuritish qobiliyati, aqliy faolligi va verbal tafakkurini namoyon etadigan muhim salohiyatlardan biri hisoblanadi. Ushbu qobiliyat orqali shaxs ma'lumotni qabul qilish, qayta ishlash va yangicha yechimlar ishlab chiqish jarayonida o'zini ko'rsata oladi. Verbal intellekt shaxsning so'z boyligi, so'zlarni tushunish va ifoda qilish ko'nikmalari orqali namoyon bo'ladi. Aqliy faollik esa, qisqa vaqt ichida axborotni qabul qilish va undan maqsadli foydalanish qobiliyati bilan tavsiflanadi. Shu bilan birga, eruditsiya – keng qamrovli bilim va dunyoqarash, ijodiy fikrlash esa yangi, standart bo'lmagan yondashuvlarni ishlab chiqish qobiliyati bilan bog'liq. Test savollari maqol va iboralarni to'ldirish, qisqa matnlarni tahlil qilish, mantiq o'yinlari orqali shaxsning aqliy salohiyatini baholashga xizmat qiladi.

18-mavzu. Tahliliy fikrlash qobiliyatini baholash

Nomzodning ma'lumotni tahlil qilish, muhim jihatlarni ajratib olish va xulosa chiqarish qobiliyati. Muammoni tahlil qilish va yechim taklif etish. Sabab-oqibat munosabatini tushunish. Axborotni tuzish va qayta tuzish qobiliyati. Tezkor qaror qabul qilish qobiliyati. Grafik va jadvallar bo'yicha savollar. Matn tahlili: tanqidiy fikrlash talab qilinadigan savollar. "Ssenariy yechimlari" – voqea yoki muammoli vaziyatlar asosida savollar.

Tahliliy fikrlash qobiliyati insonning ma'lumotlar bilan ishlash, ularni mazmunan tahlil qilish, muhim jihatlarni ajratib olish va xolis xulosa chiqarish imkoniyatini anglatadi. Mazkur qobiliyat asosida inson muammoli vaziyatlarni tizimli ko'rib chiqadi, sabab-oqibat aloqalarini aniqlaydi va oqilona yechimlarni ishlab chiqadi. Tahliliy fikrlash ma'lumotlar tuzilishi, qayta tuzilishi, jadval va grafiklardagi ma'lumotlarni tahlil qilish kabi mashqlar orqali namoyon bo'ladi. Test savollari muammoli vaziyatlarga oid ssenariy yechimlari, tanqidiy tahlil talab qiladigan matnlar va tizimli qaror qabul qilish qobiliyatini aniqlashga mo'ljallangan bo'ladi.

19-mavzu. Mantiqiy fikrlash qobiliyatini baholash

Nomzodning mantiqiy qonuniyatlarni tushunish, ularni qo'llash va mantiqiy xulosa chiqarish qobiliyati. Induktiv va deduktiv fikrlash. Qatorlar va tizimli mantiqiy ketma-ketliklar. Murojaat va xulosalar (mantiqiy xulosalar). Raqamli va harfli qatorlar mantiqliyini topish. Mantiqiy bog'lanishlarni topish.

Mantiqiy fikrlash qobiliyati shaxsning mantiqiy qonuniyatlarni anglash, ular asosida fikr yuritish va xolis xulosa chiqarish qobiliyatini namoyon etadi. Ushbu salohiyat orqali shaxs sabab va oqibatni bog'laydi, mantiqiy zanjirlarni shakllantiradi va xulosalar chiqarishda mazmun hamda tartibga amal qiladi. Mantiqiy fikrlash induktiv va deduktiv usullar asosida shakllanadi va raqamli, harfli ketma-ketliklar, mantiqiy bog'lanishlarni topish kabi mashqlar orqali namoyon bo'ladi. Test savollari mantiqiy zanjirlar, murojaat-xulosa asosidagi savollar, mantiqiy qatorlarni davom ettirish kabi turlardan iborat bo'lib, shaxsning fikrlash jarayonidagi izchillik va mantiqqa asoslangan xulosalar chiqarish qobiliyatini baholaydi.

20-mavzu. Rahbarga xos qadriyatlar

Boshqaruv jarayonida umumbashariy va milliy qadriyatlarning namoyon bo'lishi. Rahbardagi o'ziga xos xususiyatlarning boshqaruv jarayonida aks etishi. Shaxslararo munosabatda namoyon bo'ladigan qadriyatlarning boshqaruv

jarayoniga ta'siri. Shaxsning dunyoqarashi va etnopsixologik qadriyatlarning uzviy bog'liqligi darajasi.

Boshqaruv jarayonida rahbarning shaxslararo munosabati va unda qadriyatlarning namoyon bo'lishi. Rahbarning o'z faoliyati natijalarini analiz va sintez qila olish darajasi. Rahbarda boshqa shaxslar faoliyatini baholay olish darajasining shakllanganligi.

Shaxsning o'z va boshqalar faoliyatiga tanqidiy yondashuvi.

21-mavzu. Rahbarda tizimli tafakkur

Tizimli tafakkurning o'ziga xos qirralarining faoliyat jarayonida namoyon bo'lishi. Shaxs tomonidan vaziyatni umumlashtirish analiz va sintez qilishning boshqaruv jarayonidagi faoliyatda bilvosita hamda bevosita aks etishi. Rahbar faoliyatida tizimli tafakkur mahsulining aks etishi. Rahbarning qarorlar qabul qilishida tizimli tafakkurining namoyon bo'lish qonuniyatlari.

Tizimli tafakkur va tafakkur turlarining uzviy bog'liqligi. Tafakkur jarayonining boshqa ruhiy jarayonlar bilan bog'liqligi.

XORIJIY TILNI BILISH SOHASIDA

22-mavzu. Xorijiy til ko'nikmalarini baholash

Talabgorlar ingliz tili bo'yicha **B1** darajadagi grammatik va leksik kompetensiyalari hamda nutqiy kompetensiyalardan o'qib tushunish ko'nikmalariga ega bo'lishlari lozim. **Grammatika bo'limi:** fe'l zamonlari, modal fe'llar, sifat va ravishlarning qiyosiy darajalari, determinativ so'zlar, predloqlarni kundalik, ilmiy va sohaviy kontekstlarda to'g'ri qo'llay olish; **leksika bo'limi:** so'z yasalishi (qo'shma so'zlar va affiksatsiya), o'zlashma (baynalmilal) va o'zakdosh so'zlar, antonimlar, sinonimlar va boshqa umumleksik munosabatlarni qo'llay olishi; **o'qib tushunish bo'limi:** atrof-muhit, maishiy masalalar, shaxs va kasb psixologiyasi, madaniyat, ijtimoiy masalalar, fan va texnika yangiliklari, internet tarmoqlaridan foydalanishga oid matnlarni o'qib tushunishni o'z ichiga oladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh. Yangi O'zbekiston va hozirgi zamon. - T., 2024.
2. Saidov A., Aliyev A. O'zbekiston siyosiy va huquqiy fikri tarixi.
3. Saidov S. O'zbekistonda ko'ppartiyaviylik tizimi: holati va muammolar // <https://www.uzanalytics.com/siyosat/3225/>.
4. Jo'rayev Q. O'zbekiston Respublikasi va jahon hamjamiyati - T., 2024.
6. Xusanov O.T. Konstitutsiyaviy huquq. Darslik, - T., 2024.
7. Mahalliy boshqaruv. Asadov Sh va boshqalar. Darslik, - T., 2017.
8. Raximova D.N. va boshqalar. Zamonvay menejment: nazariya va amaliyot. G'ofur G'ulom nashriyoti, 2009. 56,0 b.t.
9. Nazarova G.G., Muxamedjanova G.A., Salixova N.M., Ismailova N.S., Rozmetova N.B. Inson resurslari menejmenti /prof. B.Yu. Xodiyev tahriri ostida (o'quv qo'llanma), TDIU, 2010 y. 194-bet
10. Hayes, J. – The Theory i Praktika of Change Management. 4th Ed. London: Palgrave Macmillan (2014).
11. Qoraboyev J.F., Maxmudov I.I. Psixodiagnostik ekspert tizimi. – T.:Akademiya, 2014
12. Maxmudov I.I., Qoraboyev J.F. Rahbar shaxs-psixodiagnostik ekspert tizimi. –T.: Akademiya, 2013.
13. Anastazi A., Urbina S. Психологические тесты / Пер. с англ. – SPb.: Piter, 2011
14. Методы психологической диагностики. – М.: Институт психологии РАН, 2004.
15. “O'zbekiston – 2030” strategiyasi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-160-sonli Farmoni // <https://lex.uz/docs/6600413>
16. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947-sonli Farmoni.
17. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 09.04.2025-yildagi 212-son “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarining inson resurslarini boshqarish bo'yicha faoliyatini samarali tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida” gi qarori <https://lex.uz/docs/-7469644>
18. Raymond Murphy. English Grammar in Use. 5th ed., Cambridge University Press, 2019. -394 P.
19. Malcolm Mann, Steve Taylore-Knowles. Destination B1 Grammar&Vocabulary. Macmillan, 2007. – 255 P.
20. B1 Intermediate Reading Lessons. URL: <https://www.cathoven.com/english-teaching-resources/b1-intermediate/>

21. British Council B1 Reading. URL:

<https://learnenglish.britishcouncil.org/skills/reading/b1-reading>